

XITOIY TILIDAGI TURG‘UN BIRIKMALARDA “拿 ná + OT + FE’L” KONSTRUKTSIYASINING STRUKTUR VA SEMANTIK TAHLILI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-56-65>

Badalbayev Dilshod Farxod o‘g‘li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

2-bosqich tayanch doktoranti

dilixiade@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xitoy tilidagi “拿 ná + ot + fe’l” konstruktsiyasi va uning asosiy uch shakli — “拿___没办法” (ná ___ méibànfǎ), “拿___来说” (ná ___ láishuō), “拿___开心” (ná ___ kāixīn) — semantik va strukturaviy jihatdan tahlil etilgan. Struktur tahlil konstruksiyaning har bir komponentining sintaktik funksiyasini ochib berishga qaratilgan. Semantik tahlil esa ularning ma’no yuklamasi va kontekstda qanday kommunikativ vazifani bajarishini yoritadi. Konstruksiyalarning nutqdagi ekspressivlik darajasi, ohangni kuchaytiruvchi birliklar bilan uyg‘unligi hamda kinoya, norozilik, misol keltirish kabi pragmatik vazifalari atroflicha o‘rganilgan. Maqola xitoy tilidagi konstruktsiyalarni o‘zbek tilida tahlil qilishga intilgan ilmiy ishlardan biri bo‘lib, struktur tahlil metodologiyasining amaliy imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Bu tadqiqot xitoy tilini chuqur o‘rganayotgan tilshunoslar, tarjimonlar va talabalarga qo‘l keladi.

Kalit so‘zlar: struktur tahlil, konstruktsiya grammatikasi, 拿 konstruktsiyasi, semantik funksiyalar, xitoy tili, pragmatika, turg‘un birikma, 拿开心, 拿来说, 拿没办法

STRUCTURAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF THE “拿 NÁ + NOUN + VERB” CONSTRUCTION IN CHINESE FIXED EXPRESSIONS

Badalbayev Dilshod Farhod ogli

Tashkent State University of Oriental Studies

2nd-year PhD Candidate

dilixiade@gmail.com

Annotation: This article analyzes the Chinese construction “拿 ná + noun + verb” and its three main forms — “拿___没办法” (ná ___ méi bànǎ), “拿___来说” (ná ___ láishuō), and “拿___开心” (ná ___ kāixīn) — from both semantic and

structural perspectives. The structural analysis focuses on clarifying the syntactic functions of each component within the construction. The semantic analysis highlights their meaning load and the communicative roles they play in context. The study also examines the expressive force of these constructions in speech, their compatibility with emphatic units, and their pragmatic functions such as irony, dissatisfaction, and providing examples. This article is one of the works attempting to analyze Chinese constructions in Uzbek, demonstrating the practical applications of structural analysis methodology. The research will be useful for linguists, translators, and students engaged in in-depth study of the Chinese language.

Keywords: structural analysis, construction grammar, 拿 construction, semantic functions, Chinese language, pragmatics, fixed expression, 拿开心, 拿来说, 拿没办法

Kirish: XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda yangi ilmiy paradigma — strukturalizm shakllana boshladi. Ushbu yondashuv, avvalo, tilni ichki qonuniyatlarga ega bo‘lgan murakkab tuzilma sifatida o‘rganishga asoslanadi. Struktur tahlil tilshunoslikda til birliklari — fonema, morfema, leksik birlik, gap va matn — o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni aniqlash orqali til tizimini chuqur anglashni maqsad qiladi.

Xitoy tilshunosligi misolida strukturalistik yondashuv alohida ilmiy ahamiyatga egadir. Chunki xitoy tili aglutinativ emas, balki izolyativ tuzilishga ega bo‘lib, unda grammatik shakllanishlar aniq va qat’iy tartibga asoslanadi. Shu bois, tilning struktur birliklarini aniqlash va ularning o‘zaro munosabatlarini tahlil etish xitoy tilining lingvistik xususiyatlarini chuqur o‘rganishda muhim vosita hisoblanadi.

Bizning tadqiqotimizda turg‘un birikmalar o‘ziga xos semantik xususiyatlarga ega bo‘lgan til birliklari sifatida ko‘rib chiqiladi. Ularning mazmuni, odatda, tarkibiy qismlarning oddiy yig‘indisidan iborat bo‘lmay, balki qo‘shimcha semantik yuklama va umumiy semantik strukturaning mavjudligi orqali aniqlanadi. Aynan shu omillar turg‘un birikmalarni o‘ziga xos til birliklariga aylantiradi.

Ushbu semantik xususiyatlarni chuqurroq tahlil qilish maqsadida, biz konstruksiya grammatikasi (construction grammar) yondashuviga murojaat qilamiz. “Construction” termini xitoy tilshunosligida turlicha ifodalangan bo‘lib, ular orasida “语法结构式” (yǔfǎ jiégòu shì), “构块式” (gòu kuài shì), “构式块” (gòu shì kuài), “句式” (jùshì), “语法结构”等 kabi variantlar mavjud. Peng Xuefeng (彭挈舫, 2004) tomonidan taklif etilgan “构式” atamasi esa bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanilmoqda.

Asosiy qism: Quyida biz “拿(ná)+ot+fe’l” (拿+N+V) konstruksiyasining strukturaviy va semantik xususiyatlarini tahlil qilishni boshlaymiz. Ushbu konstruksiyada birinchi komponent — “拿”(ná) fe’li bo’lib, u odatda “olmoq”, “egallamoq”, “qo’lga kiritmoq” ma’nolarini bildiradi.

Strukturaviy jihatdan bu konstruksiyaning umumiy shakli “拿(ná) + N + V” ko’rinishida bo’lib, u quyidagi funksional vazifani bajaradi:

• “拿”(ná) — harakatning yo’nalganligini yoki ob’ektga nisbatan bajarilayotgan harakatni bildiruvchi komponent sifatida ishtirok etadi;

• N — harakat ob’ekti bo’lib xizmat qiladi;

• V — asosiy harakatni ifodalovchi fe’l hisoblanadi.

Bu konstruksiya vositasida aytilayotgan harakat aniq bir ob’ektga yo’naltirilgan va ushbu ob’ekt ustida harakat amalga oshiriladi. Natijada “拿(ná)+N+V” konstruksiyasi xitoy tilidagi tipik funksiya-mazmun birligining ifodasi sifatida qaraladi. [1:20]

I. “拿__没办法”(ná__méibànfǎ)

“拿__没办法”(ná__méibànfǎ) konstruksiyasi xitoy tilida kimdir yoki nimagadir nisbatan norozilik ifodalansa-da, ushbu holatni o’zgartirish uchun hech qanday samarali chora topilmasligini anglatadi. Bu konstruksiya, asosan, ojizlik, majburlik va ichki tushkunlik kayfiyatini ifodalovchi ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi.

Semantik jihatdan ushbu konstruksiya insonning muayyan vaziyatga yoki shaxsga nisbatan hech qanday yechim topa olmasligi, natijada muammoni hal qilish imkoniyatining yo’qligini anglatadi. “拿__没办法”(ná__méibànfǎ) iborasi, shuningdek, muqarrar chorasizlik holatini bildiradi va ko’pincha “...ga qarshi hech narsa qilib bo’lmaydi” tarzida tarjima qilinadi.

1. 叫我去插秧，我就是不去，嘻嘻！他们也没拿我没办法。

Jiào wǒ qù chāyāng, wǒ jiùshì bù qù, xīxī! Tāmen yě méi ná wǒ méi bànfǎ.

Menga ko’chat ekishga bor deganlar, lekin men baribir bormayman, ha-ha! Ular menga hech narsa qila olishmaydi.

2. 小镇哪小镇，我真拿你没办法！

Xiǎo zhèn nǎ xiǎo zhèn, wǒ zhēn ná nǐ méi bànfǎ!

Ey, kichkina shaharcha, sen bilan haqiqatan ham hech narsa qila olmayman!

3. 嗨，这几年间腾的。别的没有，尽出这货，真拿他没法。

Hē, zhè jǐ nián jiān téng de. Bié de méiyǒu, jìn chū zhè huò, zhēn ná tā méi fǎ.

Ex-xe, bu so’nggi yillarda qanday o’zgarib ketdi. Boshqa narsa yo’q, faqat shunaqa odamlar chiqayapti, u bilan haqiqatan hech narsa qilib bo’lmaydi.

4. 实在拿你们这些妈妈学生没办法！先克服母性的弱点嘛，考完了再陪孩子玩他三天.....

Shízài nǎ nǐmen zhèxiē māma xuéshēng méi bànfǎ! Xiān kèfú mǔxìng de ruòdiǎn ma, kǎo wán le zài péi háizi wán tā sān tiān...

Siz onalardan bo‘lgan talabalar bilan chinakamiga hech narsa qila olmayman! Avval onalik hissiyotlaringizni yengib olinglar, imtihondan keyin bolalaringiz bilan o‘ynaysizlar...

5. 那个班的学生总是不做作业，真拿他们没办法。

Nàgè bān de xuéshēng zǒng shì bú zuò zuòyè, zhēn nǎ tāmen méi bànfǎ.

U sinfnig o‘quvchilari doim uy vazifasini qilmaydi, ular bilan haqiqatan hech narsa qilib bo‘lmaydi.

6. 甲：对不起，请你再说一遍。

乙：我都说了两遍了，你还没听清？真拿你没办法！

Jiǎ: Duìbuqǐ, qǐng nǐ zài shuō yībiàn.

Yǐ: Wǒ dōu shuō le liǎng biàn le, nǐ hái méi tīng qīng? Zhēn nǎ nǐ méi bànfǎ!

A: Kechirasiz, iltimos, yana bir marta ayting.

B: Men allaqachon ikki marta aytdim, sen hali ham tushunmadingmi? Haqiqatan sen bilan hech narsa qilib bo‘lmaydi!

“拿___没办法” (ná___méibànfǎ) konstruktsiyasi gapda kesim (predikat) vazifasini bajaradi. Bu yerda bo‘sh o‘ringa birinchi (1-shaxs, qarang: 1-misol), ikkinchi (2-shaxs, qarang: 2-misol) yoki uchinchi (3-shaxs, qarang: 3-misol) shaxs olmoshlari ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, bo‘sh o‘rin tarkibida ot birikmalari ham (qarang: misol 4-misol) kelishi mumkin. Bu komponent insonni ham, narsa-hodisa yoki predmetni ham anglatishi mumkin (qarang: 2-misol).

Ushbu konstruktsiyani kuchaytirish uchun “真是”(zhēnshì), “简直”(jiǎnzhí), “一点”(yìdiǎn), “真的”(zhēnde), “实在”(shízài) kabi daraja bildiruvchi iboralar bilan kelishi mumkin.[2:125]

II. “拿___来说” “ná___láishuō”

“拿___来说” “ná___láishuō” konstruktsiyasi xitoy tilida muayyan hodisa, shaxs yoki predmetni misol sifatida keltirish orqali fikr yoki nuqtai nazarni asoslash vazifasini bajaradi. Ushbu konstruktsiya ko‘pincha taqqoslash, umumiy mulohaza chiqarish yoki shaxsiy fikrning to‘g‘riligini isbotlash maqsadida qo‘llanadi. Strukturaviy jihatdan bu konstruktsiyada “拿”(ná) fe‘li o‘zining asl ma‘nosi — “olmoq”dan ko‘ra kengroq, ya‘ni “asos sifatida olish”, “misol qilib olish” mazmunini anglatadi. “来说” “láishuō” qismi esa, aynan shu misoldan kelib chiqib fikr bildirish, izoh berish, umumlashtirish ma‘nosini ifodalaydi.

“拿____来说” “ná ____ lái shuō” konstruktsiyasida bo‘shliq o‘rnida odatda shaxslar, narsalar yoki hodisalarning nomi, ya’ni ot yoki ot birikmalari ishlatiladi. Ba’zi hollarda bu joyda fe’l iboralari ham keltiriladi, biroq ular ham kontekstda voqea yoki holatni anglatuvchi birlik sifatida talqin qilinadi.

Semantik nuqtai nazardan ushbu konstruktsiya quyidagi vazifalarni bajaradi:

- fikrni dalil bilan mustahkamlash;
- muayyan hodisani misol qilib ko‘rsatish;
- tushuncha yoki holatni aniq ifoda etish orqali umumiy fikrni asoslash.

O‘zbek tiliga tarjima qilinganda bu konstruktsiya odatda “...ni misol qilib aytsak”, “...ni olaylik”, “...ga qaraydigan bo‘lsak” kabi shakllarda tarjima qilinadi.

1.搞什么工作都不容易。就拿你们写小说的来说吧，几十万字连成句子就不简单。

Gǎo shénme gōngzuò dōu bù róngyì. Jiù ná nǐmen xiě xiǎoshuō de lái shuō ba, jǐshí wàn zì lián chéng jùzi jiù bù jiǎndān.

Qanday ish bo‘lmasin, oson emas. Masalan, sizlar yozuvchi sifatida roman yozasizlar — yuz minglab so‘zlarni bir-biriga bog‘lab jumlagi aylantirish o‘zi bo‘lgan gap emas.

2.你们也不算什么，就拿我们小森来说，软度力度都好，基本功又扎实。

Nǐmen yě bú suàn shénme, jiù ná wǒmen Xiǎosēn lái shuō, ruǎndù lìdù dōu hǎo, jīběn gōng yòu zhāshí.

Sizlar ham unchalik ajralib turmaysizlar. Masalan, bizning Xiaosenni olaylik — u ham moslashuvchanlik, ham kuch jihatidan yaxshi, asosiy tayyorgarligi esa juda puxta.

3.不是每个人都喜欢流行歌曲的，拿我的同屋来说，就从来不听。

Bù shì měi gè rén dōu xǐhuān liúxíng gēqǔ de, ná wǒ de tóngwū lái shuō, jiù cónglái bù tīng.

Hamma ham ommabop qo‘shiqlarni yoqtira olmaydi. Masalan, mening xonadoshimni olaylik — u umuman bunday qo‘shiqlarni tinglamaydi.

4.有些事说起来容易，做起来难，拿戒烟来说，很多人老说“戒烟戒烟”，可就是戒不掉。

Yǒuxiē shì shuō qǐlái róngyì, zuò qǐlái nán, ná jièyān lái shuō, hěn duō rén lǎo shuō “jièyān jièyān”, kě jiùshì jiè bù diào.

Ba’zi ishlarni aytish oson, lekin qilish qiyin. Masalan, chekishni tashlashni olaylik — ko‘pchilik doim “chekishni tashlayman, tashlayman” deydi, lekin baribir tashlay olmaydi.

“拿” (ná) fe’li oldidan ko‘pincha “就” (jiù) qo‘shimcha ravishi ishlatiladi, “说” (shuō) fe’lidan so‘ng esa gap ohangini yumshatuvchi “吧” (ba) yuklama so‘zi kelishi mumkin (qarang: 1-misol).

Bu konstruktsiya “拿___为例” “ná ___ wéi lì” (biror narsani “namuna sifatida olish”) degan ifoda bilan o‘xshash, lekin ayrim farqlari bor:

Konstruktsiya	Ma’nosi	Farqi
拿___来说“ná ___ lái shuō”	Misol qilib aytmq	So‘z bilan ifodalaydi, ko‘pincha gap boshlanishida ishlatiladi
拿___为例“ná ___ wéi lì”	Namuna sifatida	Rasmiyroq, ilmiy yoki yozma matnda ko‘proq uchraydi

III. “拿___开心” “ná___ kāixīn”

Tilshunoslik korpusi materiallari tahlili shuni ko‘rsatadiki, “拿___开心” “ná___ kāixīn” konstruktsiyasi asosan ikki turdagi to‘ldiruvchilar bilan qo‘llaniladi:

1. Shaxs olmoshlari va shaxsga oid nomlar (antroponimlar):

Bu turkumga so‘zlovchining o‘zi yoki boshqa shaxslar, ularning xatti-harakatlari, kamchiliklari yoki ijtimoiy mavqei bilan bog‘liq birliklar kiradi. Konstruktsiya ko‘pincha masxaralash, yengil ko‘rish yoki shaxsiy qadrni pasaytirish ma’nolarida ishlatiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu turdagi ishlatishlarning qariyb 64 foizi kinoya, yengil kulgi yoki tanbeh ohangini o‘z ichiga oladi.

2. Voqealar, narsalar va harakatlar:

Mazkur guruhda konstruktsiya shaxs bilan bog‘liq muayyan holat, harakat yoki zaif tomonlarni kulgi obyekt sifatida taqdim etadi. Bunday qo‘llanish orqali so‘zlovchi kinoya qiladi, norozilik bildiradi yoki tanqidiy munosabatni namoyon etadi.

“拿___开心” “ná___ kāixīn” konstruktsiyasi semantik jihatdan birov ustidan kulish, masxara qilish, tanqidiy hazil qilish kabi kommunikativ vazifalarni bajaradi. O‘zbek tiliga mazkur konstruktsiya odatda “...ni ustidan kulmoq”, “masxara qilmoq” tarzida tarjima qilinadi.

“拿___开心” “ná___ kāixīn” konstruktsiyasi semantik va strukturaviy jihatdan dinamik birlik bo‘lib, unda “开心” “kāixīn” komponenti boshqa mazmun jihatidan yaqin leksik birliklar bilan almashtirilishi mumkin. Jumladan, “开心” “kāixīn” o‘rniga “寻开心” (xúnkāixīn) iborasi ham qo‘llaniladi. Bu holatda “寻” (xún) (izlamoq) fe’li orqali “quvonch izlash”, “boshqani masxara qilish orqali kulgi

topish” mazmuni yuzaga chiqadi. Ya’ni, kulgi sub’yektning o’z harakati natijasi emas, balki ob’yektdan — masxaralangan shaxs yoki holatdan kelib chiqadi.

Mazkur konstruktsiyada “开心” “kāixīn” komponentidan oldin holatni kuchaytiruvchi soʻzlar ham ishlatiladi. Ular konstruktsiyaning ekspressivligini oshirib, soʻzlovchining kinoyaviy, tanqidiy yoki istehzoli munosabatini kuchaytiradi. Jumladan:

- “净是” (jìngshì)– faqat, doimo;
- “专门” (zhuānmén)– aynan shu maqsadda, atayin;
- “故意” (gùyì) – bilib turib, qasddan.

Bu kabi birliklar orqali konstruktsiya nafaqat hazil yoki kulgi ifodasi, balki tanbeh, norozilik va kinoya ohangiga ham ega boʻladi. Shunday qilib, “拿____开心” “ná____ kāixīn” turkumidagi birliklar orqali nutq egasi muayyan shaxs yoki hodisani kulgi obyektiga sifatida tasvirlab, u orqali oʻzining kommunikativ maqsadini — tanqid, istehzo yoki kinoyani amalga oshiradi. [3:11]

“拿____开心” “ná____ kāixīn” konstruktsiyasi xitoy tilida kinoya, masxara, tanqid yoki yengil hazil ifodalashning samarali vositasi hisoblanadi. Bu konstruktsiya orqali soʻzlovchi boshqa bir shaxs yoki holat ustidan kulgi qilish, uni tanqid qilish, hatto ayblovi ohangida fikr bildirish imkoniyatiga ega boʻladi. Bunda “开心” “kāixīn” (xursand boʻlmoq) soʻzi asl ijobiy semantikasidan chiqib, kontekstga qarab salbiy pragmatik yuklama oladi.

Pragmatik kontekstlarga koʻra qoʻllanilishi:

• “拿别人开心” (ná biérén kāixīn)— boshqa birovni kulgi qilish: tanqid, istehzo yoki masxara ohangida ishlatiladi.

• “拿我开心” (ná wǒ kāixīn) — oʻzini kulgi obyektiga aylantirish orqali yumshoqroq, kamtarona ohang, baʼzida xijolatni bildiruvchi ifoda.

Ushbu konstruktsiyada “开心” (kāixīn) komponenti bilan birga koʻpincha ohangni kuchaytiruvchi birliklar ham qoʻllaniladi:

- “倒” (dǎo)– ohangni kuchaytirish, qarama-qarshilikni bildirish;
- “净” (jìng) – mutlaqo, faqat shu;
- “故意” (gùyì) – qasddan, ataylab.

Tuzilishdagi nozik farqlar:

Konstruktsiyada baʼzida ohangni yumshatish yoki kuchaytirish uchun qoʻshimcha morfemalar (partikulalar) kiritiladi, masalan “来” (lái), “了” (le), ammo bu qoʻshimchalar umumiy semantik struktura va pragmatik funksiyaga sezilarli darajada taʼsir qilmaydi. Misollar:

几个人都拿我来开心，因为我是老邢正是米胖人。

Jǐ gè rén dōu ná wǒ láí kāixīn, yīnwèi wǒ shì Lǎo Xíng zhèng shì Mǐ Pàng rén.
(Hamma meni kulgu qilishdi, chunki men laqillovchi odamman.)

几个瞅出端倪的同学使牛真牛假地拿了他和星子开心。

Jǐ gè chǒu chū duānní de tóngxué shǐ niú zhēn niú jiǎ de ná le tā hé Xīngzi kāixīn.

(Ba'zi talabalar u va Xingszini atayin kulgi qilgan edi.)

Ushbu misollar konstruksiyaning funksional moslashuvchanligini va kontekst asosida qanday ohangda talqin qilinishini ochib beradi.

1. 我像个羊猪啊！你不是属羊的吗？我学羊叫。你拿我开心，我还拿你开心呢，反正咱八十年代是豁出去啦！

Wǒ xiàng gè yáng zhū a! Nǐ bú shì shǔ yáng de ma? Wǒ xué yáng jiào. Nǐ ná wǒ kāixīn, wǒ hái ná nǐ kāixīn ne, fǎnzhèng zán bāshí niándài shì huō chūqù la!

Men go'yoki qo'ychoqdayman! Axir sen qo'y yili tug'ilgansan-ku? Men qo'ydek ma'rayapman. Sen men bilan kulayotgan bo'lsang, men ham senga kulyapman! Baribir biz 80-yillardamiz, hammasiga tayyormiz!

2. 到了饭桌上，赵涛更是不了拿他开心。小英端起酒盆，赵涛问“香不香”；彭摘柿子，赵涛问“热乎吧”……

Dàole fànzuō shàng, Zhào Tāo gèng shì bùliǎo ná tā kāixīn. Xiǎo Yīng duān qǐ jiǔ pén, Zhào Tāo wèn “xiāng bù xiāng”; Péng zhāi shìzi, Zhào Tāo wèn “rèhu ba”...

Ovqat dasturxoni atrofida Zhao Tao uni kulgi qilishdan to'xtamadi. Xiao Ying vino idishini ko'targanida, Zhao Tao so'radi: “Hidi yoqimli emasmi?”; Peng xurmo uzayotganida, Zhao Tao so'radi: “Issiqligini his qilyapsanmi?”

3. 他一听没事就嚷：我要找开元，你他妈的哪去了不开心哪去，我是招你了，你干吗的呀？你跟我过去不……

Tā yī tīng méi shì jiù rǎng: Wǒ yào zhǎo Kāiyuán, nǐ tā māde nǎ qù le bù kāixīn nǎ qù, wǒ shì zhāo nǐ le, nǐ gànma de ya? Nǐ gēn wǒ guòqù bù...

U hech narsa bo'lmasa ham baqirardi: “Men Kaiyuanni qidirayapman, sen qayerda yurib, kim bilan kulgi qilayapsan? Men senga nima qildim? Nima qilayotgan eding o'zi? Men bilan yurmayapsanmi...”

4. 别怕家养着呢，心里有个什么名目。在一次居民会上，故意拿王大福开心，说：“张大嘴个什么名目？”……

Bié pà jiā yǎngzhe ne, xīnlǐ yǒu gè shénme míngmù. Zài yīcì jūmín huì shàng, gùyì ná Wáng Dàfú kāixīn, shuō: “Zhāng dà zuǐ gè shénme míngmù?”...

Qo‘rqma, u uyda boqilmoqda, yuragida nimadir bor. Mahalla yig‘ilishlaridan birida atayin Wang Dafu ustidan kulishdi, dedilar: “Og‘zini katta ochib, nimani da’vo qilayapsan o‘zi?”

5. 像她这栽离不开千金，跟县怎么会有好？大概是和那些暗干子弟玩玩，想搞点罗曼蒂克，拿穷人开心。”

Xiàng tā zhè zāi lí bù kāi qiānjīn, gēn xiàn zěnmē huì yǒu hǎo? Dàgài shì hé nàxiē àngàn zìdì wán wán, xiǎng gǎo diǎn luómàndìkè, ná qióng rén kāixīn.

U singari badavlat qiz tuman darajasidagi odamga tegishli emas. U ehtimol yashirin lavozimdagi bolalar bilan shunchaki o‘ynayotgan, ozroq romantikaga berilmoqchi, kambag‘allarni esa kulgi qilishmoqda.

6. “哎，咱们问问他，失恋是啥滋味吧？”“去去去，我最讨厌人家痛苦开心！”

“Āi, zánmen wèn wèn tā, shīliàn shì shá zīwèi ba?” “Qù qù qù, wǒ zuì tǎoyàn rénjiā tòngkǔ kāixīn!”

“Ey, borib undan so‘raylikchi, sevgidan ayrilish qanday tuyg‘u ekan?” — “Bo‘ldi-bo‘ldi, men eng ko‘p odamning dardini kulgi qilishni yomon ko‘raman!”

“拿 ____ 开 心 ” “ná ____ kāixīn” konstruktsiyasi gapda kesim sifatida qo‘llanishi mumkin, bu holatda “拿” (ná) fe‘lidan oldin ravishlar kelishi mumkin (qarang: uchinchi va to‘rtinchi misollar); shu bilan birga, konstruktsiya to‘ldiruvchi (obyekt) funksiyasida ham ishtirok etadi (qarang: ikkinchi va oltinchi misollari). Bo‘sh o‘rinda shaxs bildiruvchi 1-, 2- yoki 3-shaxs olmoshlari (qarang: birinchi, ikkinchi va uchinchi misollar) hamda shaxsga oid nomlar (qarang: birinchi misol), shuningdek inson yoki boshqa obyektlarni bildiruvchi otlar (qarang: beshinchi va oltinchi misol) ishlatilishi mumkin. “开心” (kāixīn) so‘zi ba‘zan uning sinonim shakllarida — “寻开心” (xúnkāixīn) (qarang: uchinchi misol) yoki “开开心” (kāikāixīn) (qarang: beshinchi misol) tarzida ham qo‘llaniladi. [4:129]

Xulosa qilib, “拿 ná +ot+fe’l” asosiy konstruktsiyasi tarkibida semantik va sintaktik jihatdan farqlanuvchi uchta asosiy kichik struktura ajralib chiqadi:

1. 拿 ____ 没 办 法 (ná ____ méibànfǎ)— ojizlik, chorasizlik holatini bildiradi;

2. 拿 ____ 来 说 (“ná ____ lái shuō”) — misol keltirish, asoslash, taqqoslash vazifasini bajaradi;

3. 拿 ____ 开 心 (“ná ____ kāixīn”) — masxara qilish, ustidan kulish, kinoya ifodalovchi konstruktsiyadir.

Ushbu uch konstruktsiyaning barchasi o‘z ichida umumiy semantik komponent — “joylashtirish” yoki “asos qilish” ma’nosini saqlab qoladi. Biroq ularning har biri

ma'lum kontekstda barqaror (stereotip) ifoda sifatida qaraladi va semantik qo'llanish doiralari aniq chegaralangan bo'ladi.

Natijaviy kuzatuv:

Ushbu konstruktsiyalarda:

- ohangni kuchaytiruvchi birliklar (masalan: 副词 — ravishlar),
- takroriy ifodalar,
- yo'ldosh morfemik unsurlar (kabi: “倒”, “专门”, “故意”)

keng qo'llanilishi kuzatiladi. Bu esa konstruktsiyalarning pragmatik funksiyasini kuchaytiradi va ifoda ohangini aniqlashtiradi. Shunday qilib, “拿 ná+ot+fe'l” konstruktsiyalari xitoy tilidagi barqaror semantik-struktur birliklar tizimida muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 彭 掣 舫 . (2004). 《 构 式 语 法 引 论 》 . 北 京 : 商 务 印 书 馆 .
(Peng Xuefeng. (2004). “Konstruktsiya grammatikasiga kirish”. Pekin: Commercial Press.)
2. 高 志 清 . (2012). 《 现 代 汉 语 虚 词 研 究 》 . 北 京 : 北 京 大 学 出 版 社 .
(Gao Zhiqing. (2012). “Zamonaviy xitoy tilidagi yordamchi so'zlar tadqiqi”. Pekin universiteti nashriyoti.)
3. 王 洪 君 . (2001). 《 汉 语 构 式 研 究 》 . 北 京 : 商 务 印 书 馆 .
(Wang Hongjun. (2001). “Xitoy tilidagi konstruktsiyalar tadqiqi”.)
4. Talmy, L. (2000). *Toward a Cognitive Semantics*. Cambridge, MA: MIT Press.
5. Goldberg, A. E. (1995). *Constructions: A Construction Grammar Approach to Argument Structure*. Chicago: University of Chicago Press.
6. Croft, W. (2001). *Radical Construction Grammar: Syntactic Theory in Typological Perspective*. Oxford: Oxford University Press.
7. 刘 月 华 等 . (2001). 《 实 用 现 代 汉 语 语 法 》 . 北 京 : 商 务 印 书 馆 .
(Liu Yuehua et al. (2001). “Amaliy zamonaviy xitoy tili grammatikasi”.)
8. Karimov, Akram. ХИТОЙ ТИЛИДА ИНКОР. 2020.
9. Назарова, Сайёра Анваровна, and Акрам Абильевич Каримов. "ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ КИТАЕВЕДЕНИЯ: НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КАФЕДРЫ КИТАЙСКОЙ ФИЛОЛОГИИ ТГУВ." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.Special Issue 26 (2022): 156-162.
10. Каримов, Акрамджан Абильевич. "Счётные слова в китайском языке (лексико-семантический, структуральный и функциональный анализ)." (1994).